

---

## Ko'ngilli nuroniylar paxta dalalarida

Tumanimiz paxta dalalarida shu kecha-kunduzda yig'im-terim avj pallasiga kirdi. Tumandagi barcha paxtakor fermer xo'jaliklari dalasida terim uyushqoqlik bilan olib borilayapti. Oppoq paxta xirmonlari kun sayin osmonga bo'y cho'zayapti. Qo'shtepaliklar ham bir yoqadan bosh chiqarib, g'alaba marrasi sari dadil intilmoqdalar.

Bugun, "Shakar" mahallasida istiqomat qiluvchi yoshi ulug' onaxonlardan iborat ko'ngilli hasharchilar qalb amri bilan paxtakor fermerlarga yig'im-terimda qo'l-qanot bo'lish uchun dalaga chiqishdi.

Ular tong sahardan "Chavandoz Solijon" fermer xo'jaligining paxta maydonlarida 100 kilogrammdan orttirib paxta terish uchun beliga oq etakni bog'lashdi.

